

“BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ” MAVZUSIDA DAVRA SUHBATI

Joriy yilning 19-oktyabr sanasida Ingliz tili 3-fakulteti tomonidan 5-sonli



talabalar turar joyi faollar zalida “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi. Unda fakultet dekani Z.Abdusamadov, Uchtepa tumani IIOFMB XQ masalalari bo‘yicha katta inspektorlari podpolkovnik R.Mirzayeva, mayor Sh.Abdukarimova, katta leytenant

R.Mursalimova, fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari B.Rahmatov, Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi X.Nishanova, tutorlar hamda talabalar qizlar ishtirok etdi. Tadbir davomida soha mutaxassislar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son farmoni mazmun mohiyati, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam ko‘rsatish, himoya orderi berish tartibi haqida batafsil ma‘lumot berildi.

